


# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2019 yil yanvar-mart oylarida  
asosiy kapitalga investitsiyalar



Joriy davrda 1 019,4 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 61,0 % jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korhona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 39,0 % moliyalashtirildi.






## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 14,5 % korhona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 31,1 %, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 7,9 %, aholi mablag'lari 24,5 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 9,5 %, Respublika byudjeti 11,0 % va Davlat maqsadli jamg'armalari 1,2 % va Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan esa 0,3 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi)






## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)



	mlrd.so'm	o'sish sur'ati, %da	jamiga nisbatan, %da
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>1019,4</b>	<b>66,3</b>	<b>100,0</b>
Republika byudjeti	112,1	724,5	11,0
Davlat maqsadli jamg'armalari	11,7		1,2
Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	3,4		0,3
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	96,6	135,5	9,5
Korhona mablag'lari	147,6	47,9	14,5
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	317,2	51,5	31,1
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	80,9	190,8	7,9
Aholi mablag'i	249,9	116,6	24,5



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar




	mlrd.so'm	o'sish sur'ati, %da	jamiga nisbatan, %da
<b>Surxondaryo</b>	<b>1019,4</b>	<b>66,3</b>	<b>100,0</b>
Oltinsoy	20,4	100,3	3,5
Angor	33,5	102,3	2,9
Boysun	72,9	100,3	8,8
Denov	110,1	107,6	4,7
Jarqurg'on	88,6	108,2	7,7
Qiziriq	72,9	83,0	3,0
Qumqurg'on	32,9	78,0	4,4
Muzrabod	57,9	108,8	3,4
Sariosiyo	130,5	115,2	10,8
Termiz	57,3	100,7	7,6
Uzun	21,7	101,4	1,8
Sherobod	102,4	15,9	21,5
Sho'rchi	27,7	101,9	2,8
Termis sh.	190,6	104,6	17,1



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar(davomi)

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari




Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Sariosiyo tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,2 %, Muzrabod 108,8 % va Jarqurg'on tumanlarida 108,2 % ni tashkil etdi.

Sherobod tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan keskin tushishi - 15,9 %. Bu albatta o'tgan yillarda ushbu hududda yirik investitsiya loyihasi – sement zavodi kompleksi qurilishi bo'yicha investitsiyalarning katta bo'lgani bilan izohlanadi.



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)

### Viloyatdagi ulushi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hududlar kesimida Termiz shahri hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,7 % o'zlashtirildi.


Shuningdek Termiz shahridan keyingi o'rinda Sariosiyo tumani 12,8 % ni tashkil etmoqda.

Denov va Sherobod tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 10,8 va 10,0 %ni tashkil etdi.

Jarqurg'on hamda Qiziriq tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi 8,7 va 7,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, Oltinsoy tumanida bu ko'rsatkich bo'yicha eng kami bo'ldi – 2,0 %.




## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 520,4 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 371,2 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 127,8 mlrd. so'm o'zlashtirildi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi




Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 464,4 mlrd.so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 45,5 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta quollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 450,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 44,2 %ini tashkil etdi. Qolgan 10,3 %, yani 104,8 mlrd.so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.





## Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qishloq xo'jaligi yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 274,7 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 26,9 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:


- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 32,4 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,2 %);

- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish 63,9 mlrd.so'm (6,3 %);

Tashish va saqlashda 94,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,3 % o'zlashtirildi



## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




mln.so`m

	Jami investitsiya va kreditlar (mln.so`m)	shu jumladan:		To`g`ridan – to`g`ri va boshqa investitsiya va kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
<b>Surxondaryo</b>	<b>177434,4</b>	<b>80867,4</b>	<b>96567,0</b>	<b>80867,4</b>	<b>78420,8</b>	-
Termiz sh.	25498,5	395,3	25103,2	395,3	83,8	-
tumanlar:						
Oltinsoy	67,8	67,8	-	67,8	-	-
Angor	195,7	195,7	-	195,7	-	-
Boysun	29304,0	8478,3	20825,7	8478,3	7724,5	-
Denov	39597,2	39597,2	-	39597,2	39579,2	-
Jarqurg`on	698,6	698,6	-	698,6	670,3	-
Qiziriq	710,1	710,1	-	710,1	460,8	-
Qumqurg`on	769,4	769,4	-	769,4	578,1	-
Muzrabod	29382,4	29382,4	-	29382,4	29324,1	-
Sariosiyo	50455,7	40,0	50415,7	40,0	-	-
Termiz	267,6	45,2	222,4	45,2	-	-
Uzun	206,9	206,9	-	206,9	-	-
Sherobod	52,8	52,8	-	52,8	-	-
Sho`rchi	227,7	227,7	-	227,7	-	-



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Viloyatdagi ulushi, %da:




Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi qishloq xo'jaligi o'zlashtirilib, u 60,1 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 33,9 %ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinni tog'-kon sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha 37,2 mlrd.so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 21,0 % o'zlashtirildi.

Elektr, gaz bilan ta'minlash faoliyati bo'yicha 13,2 mlrd. so'm, tashish va saqlash faoliyati bo'yicha 33,8 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan.



## Obyektlarni ishga tushirish



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 210,5 ming kv.m, bo'lgan 1450 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 154,7 ming kv.m. bo'lgan 1078 tasi qishloq joylarda joylashgan.


Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Shtrobod tumanida ishga tushirilgan 31,5 ming kv.m. va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 15,0 %ini tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda Denov tumani va Termiz shahri egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 12,4 va 9,8 %ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Uzun tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,7 %ni tashkil etdi.



## Obyektlarni ishga tushirish (davomi)

### Ishga tushirilgan turar joylar



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni:

(76) 223-07-15